

OTORINOLARINGOLOGIYA ATAMALARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Kalimbetova Dilnoza Azamatovna, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq
davlat universiteti doktoranti*

SPECIFIC FEATURES OF THE TERMS OFOTORHINOLARYNGOLOGY

*Калимбетова Дилноза Азаматовна, докторант
Каракалпакского государственного университета имени
Бердаха*

СПЕЦИФИКА ТЕРМИНОВ ОТОРИНОЛАРИНГОЛОГИИ

*Kalimbetova Dilnoza Azamatovna, PhD student of Karakalpak State
University named after Berdakh*

Annotatsiya: Ushbu maqola tilshunoslikda otorinolariningologiya atamalarining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qiladi. Tibbiyot sohasi tarkibi LOR leksikasi tarzida ifodalanadigan otorinolariningologiya terminologik birliklarining lotin va yunon tillaridan kelib chiqishi ta'sirida o'ziga xos lingvistik xususiyatlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: terminologiya, otorinolariningologiya, tibbiyot leksikasi, terminologik birlik, konsept, nomenklatura, leksik tizim, lotin tili, yunon tili.

Abstract: This article analyzes the specific features of otorhinolaryngology terms in linguistics. The specific linguistic features of the terminological units of otorhinolaryngology, which are expressed in the form of ENT lexis, are considered due to their origin from Latin and Greek languages.

Key words: terminology, otorhinolaryngology, medical lexis, terminological unit, concept, nomenclature, lexical system, Latin language, Greek language.

Аннотация: В данной статье анализируются особенности терминов оториноларингологии в лингвистике. Рассматриваются специфические лингвистические особенности терминологических единиц оториноларингологии, выраженные в форме ЛОР-лексики, обусловленные их происхождением из латинского и греческого языков.

Ключевые слова: терминология, оториноларингология, медицинская лексика, терминологическая единица, понятие, номенклатура, лексическая система, латинский язык, греческий язык.

KIRISH

Otorinolariningologiya terminologiyasi – bu tibbiyot leksikasining tarkibiy leksik tizimi bo'lib, fan sohasi sifatida LORga oid ma'lum tushunchalarni va professional (kasbiy) faoliyat bilan bog'liq maxsus konseptlarni hamda nomenklatura nomlarini bildiruvchi terminlar

majmuidir. Lor leksikasining o'ziga xos xususiyatlaridan biri ushbu soha terminologik fondining asosini lotin va yunon tillaridan o'zlashgan leksik birliklarni mavjud ekanligidir. Biroq, bu o'zbek tili LOR leksikasida umuman o'zbekcha terminlar mavjud emas, degan tushunchani anglatmaydi. Fikrimizning dalili



dilnoza.kalimbetova1992@gmail.com

<http://orcid.org/0009-0005-1209-1231>

sifatida o'zbek tilida bir nechta misollarni keltiramiz. Masalan, quloq suprasi, nog'ora parda, o'rta quloq, burun bo'shlig'i, tanglay murtaqlari, halqum old va orqa bo'shlig'i, hiqildoq, burun shilliq qavati, tomoq bezlari, burun o'simalari, burun halqum murtagi, quloqning eshitish qismi va boshqalar shular qatoridan o'rin oladi.

Tibbiy terminlarning aksariyat qismi lotin tilidan o'zlashganligi hamda ular baynalmilal tizimni tashkil qilishi, dunyodagi barcha tib ilmi vakillarini bir-birlarini oson tushunishga vosita bo'lib xizmat qiladi. Zero, A.A.Reformatskiy baynalmilal (lotin-yunon) elementlardan hosil bo'lgan terminlarning afzalliklarini bir necha bor qayd etib, ularni istiqbolli, turli til terminologik birliklarini kelajakda qaror topishiga hissa qo'shadi, deb hisoblaydi [1;3].

Baynalmilallik (internatsionalizm) – dastlab bir tilda paydo bo'lgan, so'ngra u yoki bu ilmiy tushunchani belgilash uchun u orqali dunyoning boshqa tillariga so'zlarning o'zlashishi va hammaga bir xil tarzda tushunilishidir. Bu kabi terminologiya barcha yevropa tillarida (island tili bundan mustasno), jumladan, roman tillari (o'zlari lotin tilidan kelib chiqqan) va zamonaviy yunon tillarida mavjud. Zero, lotin tili butun dunyoda tibbiyot tili sanalib, miqdor jihatdan, bu tildan o'zlashgan terminlar dominant hisoblanadi" [2;410-414]. Biroq, bugungi kunda tibbiyot leksikasida nechta lotin va nechta yunon leksik birliklari yozma va og'zaki muloqotda ishlatilishi haqida aniq ma'lumot mavjud emas.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Terminshunoslik masalalari bilan maxsus shug'ullangan olim A.Madvalievning fikriga ko'ra: "...rus va o'zbek tibbiyot terminologiyasining, umuman, barcha tibbiyot terminologiyalarining bunchalik baynalmilal terminlarga boy bo'lishining sabablaridan biri sifatida XVII–XVIII asrlardan boshlab tibbiyotning rivojlanish markazi Sharqdan G'arbga, xususan, Yevropaga ko'chganligi va shu munosabat bilan ko'plab tibbiy tushunchalar – turli kasalliklar, patologik holatlar, simptom va sindromlar, sun'iy dori-darmonlar, son-sanoqsiz tibbiy asbob va apparatlar, kasallik qo'zg'atuvchi mikro organizmlarni nomlash uchun lotin va yunon tiliga mansub lug'aviy hamda affiksial (prefiks va suffiks) elementlardan foydalangan holda minglab yangi terminlarning yaratilganligi ta'kidlanadi" [3;237].

Rus tilshunosi D.A.Dmitrieva esa yuqoridagi olimlardan farqli tarzda tibbiyot terminologiyasi xususida biroz farqli g'oyani ilgari suradi. Uning fikricha: "Termin - ilmiy va amaliy faoliyatning har qanday tushunchasini ifodalovchi, semantik jihatdan nominativ va definitiv funksiyani bajaradigan leksik so'z yoki iboradir. Muayyan fan tilining leksik tizimining elementi sifatida termin boshqa semiotik xususiyatga ega bo'lgan belgilarni ifodalaydi. Lisoniy belgi bilan ifodalanyotgan tushuncha o'rtasidagi yagona muvofiqlik va til belgisining xususiyatlarini tartibga soluvchi til birligidir. Ya'ni, "termin maxsus so'z emas, balki maxsus vazifadagi so'z bo'lsa, bu funktsiya terminning nominativ vazifasi sifatida tushuniladi". [4;132]

NATIJARLAR

LOR terminlarining uchta asosiy xususiyatini ko'rsatib o'tishni lozim, deb bilamiz:

1. LOR sohasiga oid tushunchalar chegaralarini belgilashda paydo bo'ladigan signifikativ va semantik xususiyatlar;
2. Nutqni amalga oshirish jarayonida namoyon bo'ladigan kontekstual va pragmatik xususiyatlar;
3. Terminlarning morfologik va sintaktik xususiyatlari.

LOR sohasi terminologiyasining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri, mazkur leksik tizimda "termin"ga qo'yiladigan talablarga javob bermaydigan termin shaklidagi ba'zi leksemalarning ham mavjudligidir.

Ingliz va o'zbek tillarida LOR terminologik tizimi bir-muncha murakkab bo'lib, odatda terminologik birliklarni tarjima qilishda ularning ma'nolari ta'rif va izohlar orqali aniqlashtirilishi talab qilinadi. "Aslida ushbu qonuniyat har qanday soha terminlariga ham dahldor muhim tamoyil hisoblanadi". Bundan tashqari, turli tillarning terminologik tizimlarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarda terminlarning yasaliish va hosil bo'lish usullarini tahlil qilishga katta ahamiyat berilgan.

Tibbiyot sohasining tarkibiy LOR leksikasi tarzida ifodalanadigan otorinolaringologiya terminologik birliklarining ham aksar qismi lotin va yunon tillaridan kelib chiqishi ta'sirida o'ziga xos lingvistik xususiyatlarga ega. Ushbu spetsifik xususiyatlar qatoriga quyidagilarni ham kiritishimiz mumkin:

- So'z, ya'ni terminlarni yasaliishidagi o'ziga xos xususiyatlar: Bunda ko'p terminlar lotin va

yunon tillaridan o‘zakga prefiks va boshqa qo‘shimchalarni qo‘shish yoki birlashtirish orqali hosil bo‘ladi. Masalan, “otorhinolaryngology” so‘zidan olingan “oto - quloq”, “rhino – nose - burun”, “laryngo – throat tomoq” va “logy - logiya - o‘rganish” degan ma‘nolarni anglatadi. Lor sohasida qo‘llaniladigan terminlar oxiriga –it- suffiksi ham lotincha “itis” qo‘shimchasidan shakllangan bo‘lib, “yallig‘lanish” degan ma‘noni bildiradi. Masalan, laringit, tonsilit, faringit, rinit, bronxit va boshqalar shular qatoridan o‘rin oladi. Lor sohasi terminlarida uchraydigan bunday diskriptorlar, ya‘ni markerlar boshqa soha leksik birliklarida uchramaydi.

- LOR leksikasida mavjud bo‘lgan terminlarning aksar qismi aosan insonning hid bilish (burun), ta‘m bilish (tomoq) va eshitish (quloq), ya‘ni akustik jarayonlar bilan o‘zaro bog‘langanligi: Ushbu terminlar ko‘pincha muayyan anatomik tuzilmalarni yoki tibbiy sharoitlarni tavsiflash maqsadida foydalaniladi. Masalan, “otitis media – o‘rta quloqning yallig‘lanishi” va shuningdek, “rhinorrhea – burundan ko‘p miqdorda oqindining chiqishi” kabi misollarni keltirishimiz mumkin.
- LOR terminlarining funksional-semantik jihatdan aniqlik tamoyiliga asoslanganligi: otorinolaringologiya terminlari aniq va o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ko‘pincha tibbiy sharoitlar yoki tibbiy protseduralarni tavsiflash uchun anatomik leksik birliklardan foydalaniladi. Terminlardagi ushbu aniqlik xususiyati tibbiyot mutaxassislariga to‘g‘ri va samarali muloqot qilishga yordam beradi.
- Moslashuv xususiyati: ba‘zi LOR terminlari kundalik tibbiy amaliyotda bemorlar bilan muloqotda qulayroq foydalanish maqsadida vaqt o‘tishi bilan moslashuv yoki soddalashtirilgan bo‘lishi mumkin. Bunday terminlar leksik-semantik jihatdan tibbiyot sohasining LOR tarmog‘iga xoslangan bo‘lib, quloq, burun va tomoq bilan bog‘liq kasalliklarni tashxislash va davolashda qo‘llaniladigan ma‘lum tushunchalarni ifodalashga xizmat qiladi. Shunday ekan, ushbu terminlar tibbiyot sohasiga moslashtirilgan noyob lug‘at to‘plamini o‘z ichiga oladi. LOR terminlari yuqori darajadagi motivatsiyaga asoslangan va tibbiyot lug‘atining

ma‘lum bir qismini tashkil qiladi va sof tibbiyot terminlari sifatida baholanadi.

MUHOKAMA

LOR terminologiyasi tibbiy bilimlar majmui va texnologiyalardagi yutuqlar bilan parallel shaklda rivojlanayotgan leksikalardan biri hisoblanadi. Shu bois, ushbu leksikada so‘z o‘zlashtirish jarayoni ancha yuqori snaladi. LOR mutaxassislari va xodimlari sohada davom etayotgan o‘zgarishlardan va yangiliklar, islohotlardan o‘z vaqtida boxabar bo‘lishlari uchun kasalliklarni va dori-preparatlarining mazmun-mohiyatini tushunish uchun mazkur soha terminologiyasi va terminografiyasi xususida kerakli bilim va ko‘nikmalarni egallashlariga ehtiyoj sezishadi, albatta. Buning yagona yo‘li esa tilshunoslar va leksikograflar tomonidan LOR sohasida faol qo‘llaniladigan ko‘p tilli (inglizcha-o‘zbekcha-qoraqalpoqcha) va tarjima lug‘atlarini yaratish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Bugungi kunga kelib LOR terminologiyasi bo‘yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar nisbatan kamchilikni tashkil etganligi sababli soha leksikasida qo‘llanadigan ba‘zi terminlarning semantik – funksionalligini tushunishda muayyan semantik chalkashliklar ham kuzatiladi. Shunday bo‘lsa ham ushbu soha leksikasi xususida xorijda nashr etilgan ayrim maqolalar va ilmiy tezislarda keltirilgan, turli shaklda hosil bo‘lgan terminlarning struktur-semantik, umuman, lingvistik xususiyatlariga e‘tibor berib, tilshunoslar oldida istiqbolda amalga oshirilishi muhim bo‘lgan masalalarni taxmin qilish qiyin emas. Mazkur masalalardan biri, bugungi kunda sohaviy terminlarning o‘ziga xos so‘z yasaliş usullarini tahlil qilish, leksik-grammatik (morfologik), struktur-semantik, denotativ va konnotativ xususiyatlarini chuqurroq o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday tadqiqotlar tilshunoslik, tibbiyot, farmatsevtika va sog‘liqni saqlash sohasining boshqa yo‘nalishlarida tadqiqotchilar hamda mutaxassislar uchun tibbiy tilni tashkil qiluvchi terminologik birliklarning o‘ziga xos xususiyatlarini, ma‘no nozikliklarini va nyuanslarini tushunish, shuningdek, sog‘liqni saqlash sohasida muloqotni yaxshilash uchun foydali deb hisoblaymiz.

XULOSA

Tilimizdagi tibbiyot sohasiga oid terminlar va leksemalarni to‘g‘ri va o‘rinli qo‘llash, to‘g‘ri talqin

qilish, ularni leksik-semantik va funksional-semantik jihatdan qo‘llash doirasi, ular bilan bog‘liq lisoniy muammolar haqida soha mutaxassilaridan tashqari, keng ommaga yetarli ma‘lumotlar berish muhim ahamiyat kasb etadi. LOR sohasi terminologik tizimi leksik birliklarining o‘ziga xos xususiyatlarga egaligi bois ham yaxlit bir tizim sifatida sistem-strukturaviy shaklda tizimli o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Реформатский А.А. Мысли о терминологии. // Современные проблемы русской терминологии. – Москва, 1986.
2. Қосимова Ф.Х. Ўзбек тилшунослигида тиббий терминологиянинг тараққиёт тенденциялари. // НамДУ илмий ахборотномаси. 2020 – № 3.
3. Мадвалиев А. Тиббиёт терминологиясининг соҳавий ва изоҳли

лугатларда берилишига доир. // Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. – Тошкент, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, давлат илмий нашриёти, 2017.

4. Дмитриева Д. А. Коммуникативно - деятельностная направленность в обучении терминологии на занятиях по русскому языку в поликультурной школе. Наука и Школа № 3.2017.
5. Акбарходжаева Ф.А. Тиббиёт соҳасига оид ўзлашма терминларнинг лингвостатистик тадқиқи. Автореф. дисс.фил.ф.д. (PhD). Тошкент. 2022.
6. Будагов Р.А. Слово и его значение. – Л.: 1976.
7. Арнольд И.В. Лексикология английского языка. - М.: 1959.

